

“LATOYIFNOMA” TAZKIRASIDA TANQIDIY YONDASHUV VA BADIY BAHOLASH MEZONLARI

Bobur QURBONOV,

SamDChTI, Yaqin sharq tillari kafedrası mudiri

<https://orcid.org/0000-0002-0822-6245>

Tel: +998973970300

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Latoyifnoma” tazkirasida uchraydigan tanqidiy fikrlar tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mualliflarning shoirlarga nisbatan bildirgan salbiy baholari ularning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlanadi. Shuningdek, Alisher Navoiy va Faxriy uslublarining o‘ziga xos jihatlari, tanqidni ifodalash shakllari va ularning mazmuniy xususiyatlari keng yoritiladi. Natijada, tazkiralardagi tanqidiy fikrlar shaxsiy baho emas, balki jamiyatda ma’naviy me’yorlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim vosita ekanligi asoslab beriladi.

***Kalit so‘zlar:** tazkira, tanqid, axloqiy g‘oya, uslub, Navoiy, Faxriy, sharh, tavsif, adabiy meros.*

КРИТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ И КРИТЕРИИ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ОЦЕНКИ В ТАЗКИРЕ “ЛАТОЙФНОМА”

Бобур Курбонов,

Заведующий кафедрой Ближневосточных языков СамГИИЯ

<https://orcid.org/0000-0002-0822-6245>

Тел.: +998973970300

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются критические замечания, встречающиеся в тазкирах «Латойфнома». В ходе исследования установлено, что отрицательные оценки, высказанные авторами в адрес поэтов, тесно связаны с их нравственно-воспитательными взглядами. Кроме того, подробно освещаются особенности стиля Алишера Навои и Фахрия, формы выражения критики и их содержательные характеристики. В результате обосновано, что критические замечания в тазкирах не являются личной оценкой, а представляют собой важное средство формирования моральных норм в обществе.

Ключевые слова: tazkira, критика, нравственная идея, стиль, Навои, Фахрия, комментарий, описание, литературное наследие.

CRITICISM AND CRITERIA OF ARTISTIC EVALUATION IN THE TAZKIRA “LATOYIFNOMA”

Bobur QURBONOV,

Head of the Department of Middle Eastern Languages

Samarkand State Institute of Foreign Languages

<https://orcid.org/0000-0002-0822-6245>

Tel: +998973970300

ABSTRACT

This article analyzes the critical remarks found in the tazkirahs Latoyifnoma. The study reveals that the negative evaluations expressed by the authors towards poets are closely connected with their moral and educational views. Additionally, the distinctive features of Alisher Navoi’s and Fakhriy’s styles, the forms of expressing criticism, and their content characteristics are discussed in detail. The study concludes that the critical remarks in tazkirahs are not personal judgments but rather an important tool for shaping moral norms in society.

Keywords: *tazkirah, criticism, moral idea, style, Navoi, Fakhriy, commentary, description, literary heritage.*

KIRISH

Sharq adabiyotida tazkira janri nafaqat biografik, balki axloqiy-estetik qarashlarni ifodalovchi muhim manba hisoblanadi. “Latoyifnoma” ana shu janrning yetuk namunalaridan bo‘lib, unda shoirlarning hayoti bilan bir qatorda ularning shaxsiy fazilatlarini ham baholanadi. “Latoyifnoma”dagi asarlarda tanqidiy fikrlarning mavjudligi ularning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki bu tanqidlar orqali muallif jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy me‘yorlarni targ‘ib qilganlar. Tazkiralardagi tanqidiy fikrlar ko‘pincha didaktik xarakterga ega bo‘lib, ular axloqiy xulosa chiqarishga xizmat qiladi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – mazkur “Latoyifnoma”dagi tanqidiy fikrlarni o‘rganish va ularning funksional ahamiyatini aniqlashdan iborat.

METODOLOGIYA.

Maqolada qiyosiy-tahliliy, matnshunoslik, deskriptiv va kontekstual metodlardan foydalanildi. Ayniqsa, “Latoyifnoma”ning turli qismlarida berilgan tanqidiy sharhlar alohida ajratilib, ularning mazmuniy va uslubiy xususiyatlari

o'rganildi. Shuningdek, tanqidiy birliklarning leksik-semantik tahlili amalga oshirildi. Masalan, "lavand", "louboliy", "beqayd", "badzabon", "xudpisand" kabi birliklarning qo'llanish chastotasi va kontekstual ma'nosi aniqlashtirildi.

MUHOKAMA.

Faxriy Hiraviy "Latoyifnoma"sining 9-bobida ismlari zikr qilinganlarning aksariyati ta'rif va tavsif etilgan, ammo tanqidiy fikrlar ham kam emas. Albatta, bunaqa holat "Majolis un-nafois"da ham bor. Mazkur ikki tazkirani nomlanishidan kelib chiqib, bu asarlarda kimningdir tanqid ostiga olinganligiga ishonish qiyin, ammo ikkala tazkirada ham shoirlarning salbiy xislatlarini bayon qilish holatlari ko'zga tashlanadi. Tazkiralardagi tanqid yoki salbiy baho berish holatlari ko'proq mualliflarning tarbiyaviy g'oyalarini namoyon etadi. Qaysidir shoirning kamchiligini bayon qilishdan maqsad uning aybini oshkor qilish emas, balki tarbiyaviy-axliqiy g'oyalarni ilgari surishdir. "Majolis un-nafois" va "Latoyifnoma" tazkiralarni qiyosiy tahlili qilib tanqidiy fikrlar ikkala muallif tomonidan ham bayon qilinganligi, ammo mualliflarning bayon uslublari farqli ekanligiga amin bo'ldik. Navoiy diplomatik uslubni ko'proq qo'llagan. Albatta, Mir Alisherning buyuk davlat arbobi ekanligi uning ijodiga ham o'z ta'sirini qoldirgani ma'lum. Faxriy esa tanqid bobida turlicha yondashgan. Ba'zi joylarda oshkora tanqid qilgan bo'lsa, bosqa joylarda zikr qilinuvchining salbiy xulq atvorini ehtiyotkorlik bilan bayon etgan. Umuman olganda tanqidiy fikrlar bayoni uchun muallifning uslubi o'zgarib turadi. Bu holat ba'zan muallifning shoirlarga bo'lgan shaxsiy munosabatlarini oshkor etadigandek tuyuladi. Sharhlardagi tanqidiy fikrlarni o'qib ularni shoirlar haqida yozilgan tavsifnoma deb tasavvur qilishimiz mumkin. Sharhlar juda qisqa bo'lsa-da, usluban tavsifnomaga juda o'xshaydi. Ularning aksariyatida oldin shoirning yaxshi xislatlari e'tirof etilgan va oxirida kamchiliklariga ishora etib o'tgan. Albatta, keskin ravishda tanqid ostiga olinganlar ham bor. Tanqidiy fikrlarni ifodalash uchun ko'proq "lavand" (dangasa), "louboliy" (g'ayratsiz, ishyoqmas), "beqayd" (betayin), "badzabon" (qo'pol gapiruvchi) kabi so'zlarni ishlatgan. Ushbu masalani kengroq ochib berish uchun "Latoyifnoma"ning oxirgi bobida keltirilgan tanqidiy sharhlarning namunalarini qismlar kesimida taqdim etamiz. Birinchi qism Mir Hazratlariga bag'ishlanganligi sababli, ushbu qismda tanqidiy fikrlar mavjud emas. Tanqidlar ikkinchi bobdan boshlangan:

Ikkinchi qism. Bu qism Sodoti kirom, ya'ni buyuk insonlar, sayyidlarga bag'ishlangan. Albatta, sayyidlar deganda o'zlarini Payg'ambar (s.a.v) xonadoniga mansub deb biladigan insonlar tushuniladi va shu sababdan ularni tanqid qilish holatlari kamdan kam nazarga tashlanadi. Faxriy esa ushbu "Sodoti kiromlar"dan birini tanqid qilishga jur'at qila olgan. U esa Mirzo Asg'ar ismli shaxsdir. Uning

sharhi holini quyidagicha bayon qilgan: “*Valadi Amir Ayosiddin Aziz, az nuqaboi Mashhadi Muqaddasi Razaviya Attahiyata vas-salom ast, bag‘oyati safiya va badzabon ast, ammo bisyor latif tab‘ dorad*”.¹ Tarjimasi: Amir Ayosiddin Azizning farzandi, muqaddas Mashhad nuqbalari dandir, juda badzabon(qo‘polgap)dir, ammo tab‘i latifdir.

Uchinchi qism. Bu qism gohida she‘riyatga ruju’ etgan ulamolarga bag‘ishlangan. Mazkur qismda zikr qilinganlarning besh nafariga nisbatan tanqidomuz fikrlar bildirilgan. Har davru zamonda bo‘lgani kabi Faxriy yashagan yillarda ham tanqid ostiga olinishi kerak bo‘lgan olimlar ham bor ekan. Ularning namunalari quyidagilardan iborat:

*Hofiz Sulton Ali. “Az mardumi muta‘ayyini Xuroson ast va mardi pokizaro‘zgor va xushso‘hbat. Xututro xub menavisad, ammo mardum mego‘yand, ki bisyor dar libos va dastor takalluf mekunad.”*² Tarjimasi: Xurosonning mashhur insonlaridandir va juda pokiza hamda xushshubbat kishidir. Xattotlikni yaxshi biladi, ammo odamlarning aytishlaricha kiyim va dastor (salla)ga ko‘p takalluf qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, Hofiz Sulton Ali aslida yomon odam emas va muallif ham uni ancha maqtagan, ammo ozroq tanqid ham qilgan. Bu yerda Faxriy nutq uslubi bobida Navoiyga taqlid qilgandek tuyuladi. Diplomatik uslub qo‘llanilgan va tanqidiy fikr ehtiyotkorlik bilan aytilgan. To‘g‘ridan to‘g‘ri tanqid qilmagan, balki boshqa shaxslar nomdan gapirgan. Bu kabi sharhlarning ahamiyatli tomoni shundaki, muallif o‘zining tarbiyaviy g‘oyalarini ham ilgari surgan. Kiyinish odobiga rioya qilishni, tashqi ko‘rinish bilan, ayniqsa, qimmatbaho liboslar bilan kibrlanmaslikni targ‘ib qiladi. Olim kishining xokisor bo‘lishi kerakligini tarannum etadi.

*Xoja Hoshimi. “Shayxulislomi Buxorost, az asbobi dunyavi jam‘iyati tamom dorad, ammo mego‘yand har gohe ki savor meshavad, xeshonu aqraboi xudro jihati namoishi asbobi takalluf savor mekunad”.*³ Tarjimasi: Buxoroning shayxulislomidir, dunyaviy asbob(bilimlar)dan to‘liq xabardor, ammo aytishlaricha agar minsa (ya‘ni agar ko‘tarilsa, biron bir namoyon mansabga erishsa) o‘zining barcha qarindoshlarini takalluf ko‘rsatishga chorlaydi.

Bu sharhda yuqoridagi sharh uslubi takrorlangan, ya‘ni uchinchi shaxs nomidan gapirgan holda o‘zining tanqidiy fikrini aytib o‘tadi. Axloqiy ahamiyati shundan iboratki, bu bilan muallif manmanlik xislatini mahkum qilgan.

*Mavlono Amir Sabzavori. “Shayxulislomi Sabzavor bud. Aksari xututro nek menavisht, ammo bisyor xudpisand bud”*⁴. Tarjimasi: Sabzavorning shayxulislomi

¹ ۱۲۲۱ ص. لطائفنامه فخری هروی. مرتب محمد عبدالله. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی.

² Shu asar, – B 122.

³ ۱۲۲۳ ص. لطائفنامه فخری هروی. مرتب محمد عبدالله. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی.

⁴ Shu asar, – B 123.

edi. Yozuvlarning aksariyatini yaxshi bilar edi, ammo juda xudpisand (maqtanchoq) edi.

Ushbu sharhda uslubning o'zgarishi kuzatiladi. Shoirni to'g'ridan to'g'ri maqtanchoqlikka aybdor qilgan. Bir narsa diqqatni tortadi. Gapning kesimi o'tgan zamon shaklida kelgan, ya'ni bu satrlar yozilgan paytda mazkur shoir dunyoni tark etgan bo'lgan. Uning salbiy xislatini ochiq oydin bayon qilinishiga ham aynan shu narsa sabab bo'lganligi ehtimoldan xoli emas. Chunki bu kabi holatlar hozirgi zamonda ham ko'p uchraydi. O'zimiz ham ba'zi insonlar haqida gapirganda uning tirikligida, ayniqsa foydasi tegishi mumkin bo'lgan paytda ehtiyotkor bo'lamiz va olamdan o'tganidan keyin yoki biron bir lavozimdan ketganidan keyin nutq uslubimiz o'zgarishi mumkin.

To'rtinchi qism. Hurmatga sazovor bo'lgan va nazmga mayl qiluvchi fozil insonlarga bag'ishlangan bu qismda 5 nafar shoirning salbiy xislatlari xususida gapirilgan. Yuqoridagi qismlardagidek bu qismda ham muallifning sharh yozish usuli tez-tez o'zgarib turgan. Quyida mazkur 5 nafar shoirga bag'ishlangan sharhlarni tarjimasini bilan keltiramiz:

...?(*ismini o'qishni imkoni bo'lmadi*) Samarqandiy. *“Mardi rind va louboli ast, va qabilai o' az on qabila ast, ki ba “Tarsoyon” mashhur ast”*.⁵ Tarjimasini: Rind va louboliy (g'ayratsiz va ishyoqmas) kishidir va uning qabilasi “Tarsoyon” (g'ayridinlar) nomi bilan mashhurdir.

Mavloni Sulon Muhammadi Xandon. “Xushnavis, muqarrari mamoliki Xuroson ast va badin qobiliyat faridi zamon va yagonai davron ast, ammo dar tavri bisyor beqayd ast va betakalluf va beta'yin voqe' shuda xudro ba devonagi mansub medorad, nayro ham nek menavozad”.⁶ Tarjimasini: Mahoratli xattotdir, Xuroson mamlakatida yashaydi, va bu qobiliyat (xushnavislik, xattotlik) bilan zamonada mislsizdir, ammo juda betayin va betakallufdir, o'zini devonalikka soladi, nay (musiqasi asbobi)ni yaxshi chaladi.

Mavloni Mahmud Kotib. “Mavludash az shahri Hirot ast, padarash az Sheroz, modarash az Tabrez. Bag'oyat javoni odamist, ammo dimog'ash bisyor zaif ast va modai savdosh qavi ast, metavonad bud, ki az kitobati bisyor va shiddati ro'zgor boshad. Tab'i xub dorad, ammo ba she'r mashg'ul namekunad, agar tavajjo'h namoyad nek mego'yad”.⁷ Tarjimasini: Hirot shahrida tug'ilgan, otasi Sherozdan, onasi Tabrizdan. G'oyat yaxshi yigitdir, ammo hafsalasizdir, biroz savdoiy (bexayol)hamdir, ko'p kitobat qilganligi yoki hayot mashaqqatlaridan shu holga

۱۲۲۵ ص. لطائفنامه فخری هروی. مرتب محمد عبدالله. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی

⁶ Shu asar, – B. 123

⁷ Shu asar, – B. 127

tushgan bo‘lishi mumkin. Tab’i yaxshi, ammo she’riyat bilan ko‘p shug‘ullanmaydi, agar ko‘proq e’tibor qaratsa yaxshi she’rlar aytishi mumkin.

*Mavlono Mahmud. “Az kotiboni xushnavisi mute’iyoni shahri Hirot ast, bisyor javoni maqbul ast. Tab’ash dar nazmi turki va forsi xub ast, ammo aybash onki she’ri xudro bisyor ta’rif mekunad”.*⁸ Tarjimasi: Hirot shahrining xushnavislaridandir, juda yaxshi yigit. Turkiy va forsiy nazmda qobiliyati yaxshi, ammo aybi shuki, o‘z she’rini juda ko‘p maqtaydi.

*Mavlono Jamshed Munajjim. “Farzandi shahri Hirot ast, javoni lavand ast va bo vujudi fazoil va kamolot, ki dorad on miqdor beqayd va louboli ast, ki az sharh mustag’ni ast, balki xudro ba devonagi mansub medorad”.*⁹ Tarjimasi: Hirot shahrining farzandidir, juda dangasa yigitdir, bilimi va kamoloti yaxshi bo‘lsa-da, tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajadagi dangasalik odati bor, o‘zini devonalikka soladi.

Beshinchi qism. Bu qism ba’zan she’r ijod qilib turgan hunarmandlar va boshqa avom xalq haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. “Latoyifnoma”ni to‘qqizinchi majlisining eng katta qismi. “Majolis un-nafois” va “Latoyifnoma” tazkiralarning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, bu ikki asar mualliflari oddiy xalq orasidagi shoirtab’ insonlarni ko‘proq zikr qilgan va shu tariqa ko‘plab iste’dod sohiblarini abadiy yodlarda saqlanishi uchun katta xizmat qilgan. “Latoyifnoma”ning bu qismi mavzu jihatidan boshqa qismlardan farq qiladi. Bu qismda hunarmandchilik tarannum etilgan, mehnatkash xalq haqida fikrlar yuritilgan. O‘sha davrda mashhur bo‘lgan bir qancha hunarmandchilik turlari, kasb-u korlar haqida aytilgan fikrlar mavjud. Albatta ta’rif qilinganlar bilan birga tanqid qilinganlar ham kam emas. Bu qismdagi shoirlarning 27 nafari tanqid qilingan. Ular haqidagi ma’lumotlarning bir qismini tarjimasi bilan keltirishni lozim deb bildik:

*Mavlono Siddiqi. “Farzandi shahri Hirot ast, tolibilmi ham dorad, ammo xoli az nisho’ va junun nest”.*¹⁰ Tarjimasi: Hirot shahrining farzandi, tolibi ilmlik ham qiladi, ammo devonalik va beboshlikdan ham xoli emas.

*Mavlono Tuzpo’sh. “Farzandi shahri Hirot ast va dar kori xud dono va ba she’ri xud e’tiqodi tamom dorad, balki xudro ustodi in fan medonad, ammo g’alat mekunad. Go’shah bisyor garon ast, chunonchi faryod kunad nameshunavad. Kofirmojaro niz hast”.*¹¹ Tarjimasi: Hirot shahrining farzandidir, o‘z ishiga puxta va o‘zining she’riga e’tiqodi yuksak, hattoki o‘zini bu faning ustozini deb biladi, ammo adashadi. Qulog‘i juda og‘ir, qancha baqirsa ham eshitmaydi. Biroz kofirtabiadir.

⁸ ۱۲۹۸ ص. لطایفنامہ فخری ہروی. مرتب محمد عبداللہ. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی

⁹ Shu asar, – B. 129

¹⁰ Shu asar, – B. 129

¹¹ ۱۳۱۱ ص. لطایفنامہ فخری ہروی. مرتب محمد عبداللہ. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی

Mavlono G'iyosiddin Foliy. *"Az shuaro'i qadim ast, mard lavand ast, tab'i xub dorad"*.¹² Tarjimasi: Eski shoirlardandir, dangasadir, she'rda tab'i yaxshidir.

Mavlono Hayrati. *"Az viloyati Tun ast va dar Marv nash'unamo yofta. Ba mard mashhur shud, sohibjamol bud, tolibilmi karda bud va tab'ash sho'x va chun ba she'r mashg'uli namud, rushdi tamom kard, ammo az xudbinivu ajab va boboye, ki dorad ba har diyor, ki rafta xijolate bado' rasid"*.¹³ Tarjimasi: Tun viloyatidandir Marvda (Turkmaniston) kamol topgan. Mardlik xislati bilan mashhur bo'ldi, kelishgan yigit edi, tolibi ilim edi va sho'xtab' edi lekin she'r bilan ko'p shug'ullanmaganligi uchun yuksalmadi. Xudbin edi va uning dadasi qaysi diyorga borgan bo'lsa uning xudbinligidan xijolat bo'ldi.

Mavlono Fayzi. *"Kordgar, valadi usto Muhammadi Lo'badboz ast va ba ishqbozi ishtig'oli tamom dorad va she'rash bad nest va mard nek ast"*.¹⁴ Tarjimasi: Pichoq yasovchi ustadir, usta Muhammad Lo'badbozning farzandi, ishqbozlikka berilgan, she'ri esa yomon emas, yaxshi erkakdir.

Mavlono Abduljalil. *"Xeshi Mavlono Ogahi ast va az avlodi Mavlono Jalol Qoini. Mard nek ast va she'rro niz xub mego'yad, ammo ba madrasai jaddi xud bisyor menozad, balki mavloi minnat dorad"*.¹⁵ Tarjimasi: Mavlono Ogahiyning qarindoshi va Mavlono Jalol Qoiniyning avlodidandir, yaxshi insondir va she'rlari ham yaxshi, ammo ota bobolarining madrasasi bilan ko'p maqtanadi, hattoki mavlonolikka da'vo qiladi.

Mavlono Yaqini. *"Az xushtab'oni shahri Hirot ast va xatti nasx va ta'liqro bad namavisad, ammo xoli az nisho' va junun nest"*.¹⁶ Tarjimasi: Hirot shahrining xushtab'laridandir va nasx hamda ta'liq yozuvlarini yaxshi yozadi, ammo devonalikdan xoli emas.

Mavlono Muizziy. *Az avlodi muqarrab ul-bori Xoja Abdullohi Ansori ast va Malik Muazziliddin nom dorad va marde be qayd ast"*.¹⁷ Tarjimasi: Muqarrab ul-bori Xoja Abdulloh Ansoriy avlodidandir, ismi malik Muazziliddindir, g'ayratsiz erkakdir.

Mavlono Mahmud. *"Valadi Mavlono Jaloliddini Mudarris ast va Mashhadi-ul-asl ast. Va padarashro Mavlono Jaloliddin Arus niz go'yand, ba vasilai inki bisyor dar zebu zinat meko'shida, ammo in mard faqir ast va avqot az samari kitobat meguzaronad"*.¹⁸ Tarjimasi: Mavloni Jaloliddin mudarrisning farzandi va asli Mashhaddan. Otasini mavlono Jaloliddin Arus (kelin) ham deydilar, sababi shuki

¹² Shu asar, – B. 132

¹³ Shu asar, – B. 134

¹⁴ Shu asar, – B. 134

¹⁵ Shu asar, – B. 135

¹⁶ لطایفنامہ فخری ہروی. مرتب محمد عبداللہ. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی ص 135.

¹⁷ Shu asar, – B. 134

¹⁸ Shu asar, – B. 136

zeb-ziynatlarga ko‘p ishtiyoqlidir, ammo bu kishi kambag‘al insondir va tirikchiligini kitobat qilish hisobidan o‘tkazadi.

“Latoyifnoma”dagi tanqidiy fikrlar Mavlono Qosim G‘amzaning zikri bilan tugaydi. Albatta, bu qismlardan tashqari yana uchta qism mavjud, ammo keyingi uch qismda zikr qilinganlarning hech qaysiga salbiy baho berilmagan. Oltinchi qism buyuk vazirlarga, yettinchisi mashhur amirlarga va sakkizinchi qism esa buyuk sultonlarga bag‘ishlangan. Mazkur qismlarda tanqidiy mazmundagi fikrlarni yo‘qligining sababi ushbu qismlarning nomlanishidan ham ma’lumdir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 1-jild, 34-bet
2. Boqoyev M., 2012. Tilshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 145-bet
3. Jo‘rayev N., 2019. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘qituvchi, 88-bet
4. Chorshanbiyevich, Qurbonov Bobur. "On the translation of Persian complements." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.6 (2024): 266-269.
5. Qurbonov, Bobur. "“Majolis un-nafois” tazkirasining ruscha tarjimasida badiiy san’atlar ifodasi." *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*. 2024.
6. Аламов, Ш. (2022). ФОРСЧА ИЛДИЗЛИ АРАБЧА СЎЗЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 472-476.
7. Alamov, Shavkatjon. "Arab tilidagi forscha iqtiboslar." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.3 (2022): 390-395.
8. QURBONOV, Bobur. "VALISHER NAVOIYNING MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA TAZKIRACHILIK AN’ANASINING RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI." «*ACTA NUUZ*» 1.1.2. 1 (2024): 306-309.
9. Муртазоев, Валижон. "Лингвостилистический анализ текстов газет Узбекистана и Египта конца XIX–начала XX века." *Зарубежная лингвистика и лингводидактика* 2.5/S (2024): 465-471.
10. Qurbonov, B. (2025). O ‘ZBEK TILIDAGI FORSCHA O ‘ZLASHMALAR XUSUSIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(3), 450-455.
11. Murtazoyev, V. X. "ARAB TILIDAGI GAZETALAR SARLAVHALARI TAHLILI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.5 (2023): 300-305.